



SHARQ MUTAFAKKIRLARI MA'NAVIY MEROSIDA BERUNIYNING O'RNI

Ibodova Nasiba Komilovna

Osiyo xalqaro universiteti “Tarix va
filologiya” kafedrası dotsenti, f.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya: mazkur maqolada buyuk mutafakkir Abu Rayhon Beruniyning Sharq ma'rifati olamida tutgan o'rni haqida so'z boradi. Shuningdek, Beruniyning “Saydana” asari, garchi asarda turkiy va tojik tilidagi istilohlar, ayrim o'simlik va ashyolarning mahalliy nomlari uchrasa-da, bu kitob boshqa asarlar singari arabchada yozilganligiga guvoh bo'lamiz.

Kalit so'zlar: Abu Rayhon Beruniy, Sharq, ma'rifat, olam, so'z, “Saydana” asari, turkiy, tojik, til, istiloh, I.Mo'minov, xalifalik, ilm, arab, xalifalik, O'rta Osiyo, qadimgi davr, o'rta asr.

Ma'lumki, Beruniy boshqa ko'plab mutafakkirlar kabi mashhur filolog, poliglot bo'lgan. U fors, arab, yunon, hind va yana bir nechta tillarni mukammal o'rgangan. “Hindiston” asarida o'zining bolalikdanoq til o'rganishga bo'lgan kuchli ishtiyoqi, yunon tilini qanday o'rganganligi to'g'risida batafsil yozib qoldirgan. Shu risolada arab tiliga yuqori baho bergan, shu bilan birga arab yozuviga xos ayrim kamchiliklar mavjudligini qayd qiladi. Uning fikriga ko'ra, arab yozuvidagi harflar shaklan bir-biriga juda o'xshaydi, mavjud harflarni bir-biridan farqlash maqsadida zeru zabar va fleksiya belgilari qo'llanadi. Flektiv tillarga xos bo'lgan fleksiya hodisasi, ya'ni so'z asosidagi tovushlar o'rnining o'zgarishi natijasida yangi so'z va grammatik shakllarning hosil qilinishi agglutinatív tilda gaplashadigan kishilar uchun ma'lum bir qiyinchiliklar tug'dirishi tabiiy. Agglutinatív tillarda so'z yasalishi so'z o'zagiga yangi so'z yasovchi qo'shimcha qo'shilishiga tayansa (gul+chi, gul+zor, gul+siz, gul+li, gul+dor, ser+gul), flektiv tillarda bevosita so'zning asosi



o'zgarishga uchraydi (kitob, kotib, maktub, maktab). Beruniy masalaning ayni shu nozik jihatlariga ham katta e'tibor qaratgan. Qadimgi yunon olimlarining kitoblarini arab tiliga o'g'irishdagi muammolardan biri zeru zabarlarning mavjudligi deb bilgan olim yozadi: "Agar mana shu qusur bo'lmaganda, Dioskrid, Galen, Pavel va Oribazining arabchaga tarjima qilingan asarlaridagi nomlarni keltirishning o'zi kifoya qilardi".¹

Arablarning Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlariga islom dinini yoyishi bilan bu hududlarda nafaqat siyosiy, balki madaniy va ilmiy hayot ham tubdan o'zgardi. Madaniyat, ilm, fanning rivojlanishi uchun turtki bo'lgan omillar yuzaga keldi, barcha jabha taraqqiy qila boshladi, savdo, xalq hunarmandchiligi, sug'orma dehqonchilikda o'sish kuzatildi. Natijada millatlararo va mamlakatlararo madaniyatning bir-biriga ta'siri kuchaydi, bunday sintezlashuv jarayoni xalqlar dunyoqarash va tafakkuriga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Ilmiy asarlarni asosan arab tilida yaratish an'ana tusiga kirdi, boshqacha aytganda bu davrda fan tili maqomini arab tili to'liq zabt etdi. Bu holni, Beruniyning birgina "Saydana" misolida tekshiradigan bo'lsak, garchi asarda turkiy va tojik tilidagi istilohlar, ayrim o'simlik va ashyolarning mahalliy nomlari uchrasa-da, bu kitob boshqa asarlar singari arabchada yozilganligiga guvoh bo'lamiz. Buni I.Mo'minov, Yevropada lotin tili qanday rol o'ynagan bo'lsa, xalifalikda ham arab tili shunday rol o'ynagan, deb izohlaydi va Beruniyning ilmiy qiziqishlari nihoyatda keng qamrovli, xilma-xil bo'lganligi, uning arab xalifaligi, O'rta Osiyodagi Qadimgi davr va ilk o'rta asr fan tarixini mukammal o'rganganligini qayd etadi. Beruniyning asarlari bilan tanishar ekanmiz, uning fan tarixchisi sifatida ko'hna Yunonistonda yashab o'tgan taniqli faylasuflar, tabiatshunoslar ilmiy faoliyatiga doir turli-tuman, bir-biridan qiziqarli va qimmatli ma'lumotlarni uchratamiz: Fales, Pifagor, Empedokl, Suqrot, Platon, Aristotel, Galen, Gippokrat, Ptolemey haqidagi goh kichik, goh katta va chuqur qaydlar orqali olimning dunyo ilm-fani bo'yicha qanchalar ko'p va puxta bilimga ega bo'lganligini ko'ramiz. Ma'lumki, falsafada ham, adabiyot va san'atda ham,

¹ Каримов У. Берунийнинг "Китоб ас-Сайдана" (Фармакогнозия)си. Докторлик дисс. Қўлёмаси, Т.; 1971, 64-65-б.



fanning boshqa tarmoqlarida ham yetakchi ustuvor yo‘nalish – taqqoslash, qiyoslash usuli mavjud. Har bir narsaning mavjud bo‘lishi uchun uning ziddi bo‘lishi isbot talab qilmaydigan aksioma, issiq-sovuq, oq-qora, yer-osmon, halol-harom, yaxshi-yomon, do‘st-dushman va hokazo. Bu sifatdan tashqari materiyada ashyoning mavjudlik kasb etishi mumkin emas va ayni chog‘da narsalarning mohiyati ularning ziddi orqali ayonlashadi, xususiyatlari va o‘ziga xosliklari namoyon bo‘ladi. Sharq va G‘arb falsafasida birdek keng qo‘llaniladigan bu metod xususiylik va umumiylik, sabab va oqibat, talab va taklif kategoriyalari bilan bog‘liq. I.Mo‘minov Beruniyning diniy va ilmiy dunyoqarashi haqida fikr yuritar ekan, olim yashagan o‘sha davrdagi hukmron mafkura va ijtimoiy-siyosiy, ma‘naviy muhit imkoniyatlaridan kelib chiqadi. Beruniyning xristian, islom, budda kabi diniy ta‘limotlarini bir-biri bilan o‘zaro qiyoslash yo‘lidan borishini, ularning o‘zaro farqli va o‘xshash jihatlarini qayd qilishini, grek, hind, arab hamda o‘rta osiyolik alloma, faylasuflarning falsafiy qarashlarini tekshirganda Beruniy xuddi shu taxlit ish tutishini yetarli misollar yordamida asoslab beradi.

I.Mo‘minov Beruniyning ilg‘or fikrli olimlar xorazmlik matematik va astronom al-Xorazmiy, dongdor arab faylasufi al-Kindiy, eronlik mashhur kimyogar ar-Roziylarning tabiiy-ilmiy va falsafiy qarashlarining juda muhimligini ta‘kidlab, ularning har biri to‘g‘risida alohida to‘xtalib o‘tishni lozim topadi.

Muhammad ibn Zakariyo ar-Roziyning yozishicha, qadimgi greklar besh narsa: pok tangri, umumiy nafs, modda, abstrakt (mutlaq zamon), abstrakt fazoni azaldan mavjud deb bilishgan va shunga e‘tiqod qilishgan. Bu tushunchalarni sharhlar ekan, zamon bilan muddat orasida ayirma ko‘rsatib, “ularning biriga son to‘g‘ri keladi, sonning cheki bo‘lmaganligi tufayli boshqasiga son to‘g‘ri kelmaydi”, degan. Faylasuflar ibtido va intihosi mavjud ashyolar uchun zamonni, avvali va oxiri bo‘lmagan narsa uchun dahrni muddat qilib belgilaganlar.

Materiya abadiy, fazo va zamonning mavjudligi materiyaning mavjudligi bilan bog‘liq, degan xulosaga kelgan Beruniyning ayrim fikrlariga munosabat bildirmaydi.



Ptolemey va arab olimi as-So‘fi jadvallariga asoslanib tuzilgan Beruniy Ziji - Beruniy tuzgan yulduzlar jadvali 1029 ta yulduzning koordinatalari va yulduz kattaliklari aks etgan bo‘lib, unda yulduzlarning vaziyatlari ekliptik koordinata tizimida ($\pm 10'$ aniqlikda) berilgan. Beruniy mazkur zijini 1030-yilda sulton Mas‘udga atab yozgan “Mas‘ud qonuni” asariga kiritgan.

Beruniyning ulkan mehnatlari, olib borgan ilmiy izlanishlari, o‘zidan keyin qoldirgan bebaho asarlari avlodlar uchun mayoq bo‘lib qoldi va mana necha asrlarki insoniyat aql, tafakkuri tadriji uchun beminnat xizmat qilib kelmoqda. Ulug‘ allomaning nomini abadiylashtirish uchun qator chora-tadbirlar ko‘rilgan. Jumladan, 1967-yil 6-sentabrida uning nomida Davlat mukofoti ta‘sis etilgan. 1991-yilning 5-martidan O‘zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 13-fevraldagi qarori bilan ta‘sis qaroriga o‘zgartirishlar kiritilgan.

Biz buyuk xorazmlik olim Abu Rayhon Beruniyning vatanparvarlik va gumanizm g‘oyalaridan zavqlanamiz – deb yozadi I.Mo‘minov, – Har bir olimning baxti, shod-xurramligi umuminsoniy va milliy, vatan va bashariy manfaatlarni birlikda qaray olishda deb bilgan Beruniyga chuqur hurmat va ehtiromimizni chin qalbdan izhor etamiz. Beruniyda xalq vatanparvarligi izchil gumanizm bilan uzviy bog‘langandir. Bu – mutafakkirning olijanob xislat va fazilatidir.²

O‘sha davrda o‘z she‘lari bilan adabiyotga toza nafas, yangi ruh olib kirgan yosh shoir A.Oripov o‘zining mashhur “O‘zbekiston” she‘rida ulug‘ mutafakkir haqida faxrlanib yozgan:

Amerika sehrli diyor,
Uxlab yotar Kolumb ham hali.
Dengiz ortin yoritdi ilk bor,
Beruniyning aql mash‘ali.

² Мўминов И. Беруний даври ва унинг ижтимоий қарашлари // Совет Ўзбекистони 1973, июнь



Kolumbda bor alamim manim,
O‘zbekiston vatanim manim.

Darhaqiqat, millatimiz dunyoga Beruniydek yuzlab daholarni hadya qilgan va dunyo tamadduniga munosib hissa qo‘shgan. Huquqiy-demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyati qurishni maqsad qilgan ekanmiz, orzu-umidlarimizga erishish uchun yoshlarga ajdodlarimizning boy ma‘naviy merosini o‘rgatishimiz, ularning tafakkurini ulug‘ mutafakkirlar ijtimoiy-falsafiy, iqtisodiy-siyosiy, ma‘naviy-irfoniy g‘oyalari bilan qurollantirishimiz kerak. Zero, o‘zini, o‘zligini anglagan millat tarixini hech qachon unutmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov U. Beruniyning “Kitob as-Saydana” (Farmakognoziya)si. Doktorlik diss. Qo‘lyozmasi, T.; 1971, 64-65-b.
2. Mo‘minov I. Beruniy davri va uning ijtimoiy qarashlari // Sovet O‘zbekistoni 1973, iyun
3. Mo‘minov I. Xorazmlik buyuk ensiklopedist olim T.; Fan, 1973. 44-b.
4. Karimov U. Beruniyning “Kitob as-Saydana” (Farmakognoziya)si. Doktorlik diss. Qo‘lyozmasi, T.; 1971, 10-b.
5. Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. 1 tom “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”. T.; “Fan”, 1968. 40-41-b.
6. Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. 2- tom, “Hindiston”, T.; “Fan”, 1965, 25-b.
7. Komilovna, I. N. Ziyo Distributed From Tezguzar. JournalNX, 30-33.
8. Komilovna, I. N. (2022). Ibrahim Muminov's Scientific and Philosophical Heritage and Subjective Approaches to His Scientific Activity Under the Rule of the Former Ideology. International Journal on Integrated Education, 5(6), 556-559.



9. Ibodova, N. K. (2023). ALI QUSHCHI FAOLIYATINI TADQIQ ETISHDA IBROHIM MO 'MINOVNING ROLI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(2), 824-829.
10. Komilovna, I. N. (2024). Philosophical Lines to Academician Ibrahim Muminov's Activity. Journal of Sustainability in Integrated Policy and Practice, 2(1), 15-18.
11. Ibodova N. K. (2024). THE ROLE OF IBRAHIM MOMINOV IN STUDYING THE PERSONALITY OF AMIR TEMUR. INTERNATIONAL SCIENCES, EDUCATION AND NEW LEARNING TECHNOLOGIES, 1(4), 154-157.
12. Ibodova N. (2024). ACADEMIC IBRAHIM MOMINOV: MY FIRST TEACHER IS MY MOTHER. Educational Research in Universal Sciences, 3(4 SPECIAL), 436-438.
13. Ibodova N., & Raupova, R. (2023). ÖZBEK EDEBİYATI DİLİNİN MODERNİTE DÖNEMİNDE GELİŞİMİNDE ÇOLPON'UN ROLÜ. Philological issues are in the eyes of young researchers, 1(1). 2023
14. Ibodov G. K. (2023). KLASSIK VA MAXSUS - YORDAMCHI MASHQLARNING YUKLAMA ME'YORI. Educational Research in Universal Sciences, 2(15), 13–16. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/4660>
15. Ibodov Ghalibjon Komilovich. Classic And Special -The Loading Standards of Assistant Exercises. Journal of Sustainability Integrated Policy and Practice. 2024. 19-21-p. <https://journals.proindex.uz/index.php/SIPP/article/view/485/419>